

“O'zkiyosanoat” AJ tizimida 2022-yil 1-yarim yillikda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash yuzasidan olib borilgan ishlar to'g'risida BRIFING

// 28.09.2022

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/video/jismoniy-va-yuridik-shaxslarning-murojaatlari-bilan-ishlash-yuzasidan-utkazilgan-brifing>

Assalomu aleykum aziz yurtdoshlar hurmatli teletomoshabinlar. Bugungi brifingimizda “O'zkiyosanoat” AJ tizimida 2022-yil 1-yarim yillikda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash yuzasidan olib borilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etamiz.

2022-yil yanvar-iyun oylari davomida “O'zkiyosanoat” AJ ijro apparatiga tushgan jami murojaatlar soni 294 tani tashkil etib, shundan 73 tasi yuridik shaxslardan, 221 tasi jismoniy shaxslardan kelib tushgan. Jami murojaatlarning 41 tasi qanoatlantirilgan, 253 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan.

Murojaatlarning 104 tasi ishga kirish, 30 tasi mineral o'g'it eksporti, 30 tasi homiylik yordami ko'rsatish, 27 tasi Qonun va tartib buzilishlari, 25 tasi mineral o'g'it sotib olish, 14 tasi ish haqini oshirish va olish, 12 tasi hamkorlik qilish, 10 tasi debitor va kreditor qarzdorlik, 4 tasi konvertatsiya, 38 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 2022-yil 1-yarim yillikda “O'zkiyosanoat” AJga jami 116 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 11 tasi qanoatlantirilgan, 102 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan, 3 tasi tegishligi bo'yicha yuborilgan. Murojaatlarning aksariyati Navoiy, Qashqadaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahrida yashovchi fuqarolarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari orqali 2022-yil 1-yarim yillikda “O'zkiyosanoat” AJga jami 3 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 1 tasi ijobiy hal qilingan, 2 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi orqali 2022-yil 1-yarim yillikda “O'zkiyosanoat” AJga jami 46 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning aksariyati yuridik shaxslarga tegishli bo'lib, ularning 21 tasi mineral o'g'it eksporti, 10 tasi mineral o'g'it sotib olish yuzasidan, 6 tasi ishga joylashish, 4 tasi hamkorlik, 5 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.

2022-yil 1-yarim yillikda “O'zkiyosanoat” AJ boshqaruv raisi tomonidan “Maksam-Chirchiq” AJ va “Dahqonobod kaliy zavodi” AJda, “O'zkiyosanoat” AJ boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari tomonidan “Navoiyazot” AJda, “O'zkiyosanoat” AJ boshqaruv raisining investitsiya va innovatsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari tomonidan Sayyor qabullar o'tkazilgan. Sayyor qabular davomida 27 nafar fuqaro qabul qilingan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari jamiyatning ijro apparatida ko'rib chiqilgan hamda qonunda belgilangan muddatlarda murojaat mualliflariga javob berilgan. E'tiboringiz uchun rahmat salomat bo'ling.